

THE FATE OF THE MUQANNA WHO CLAIMED PROPHETHOOD

Bobomurad Fakhreddinoguly Abdishukurov

Student of Chirchik State Pedagogical University

abdshukurovbobomurod2002@gmail.com

ABSTRACT

This article discusses in detail why Muqanna, who was recognized as a folk hero in the early Middle Ages, claimed to be a prophet in some sources, and how true it is.

Keywords: Muqanna, Mazdakians, feudal, judge, faith, sect, pimp, king, mask, "Relics from the ancient people", Avesta.

PAYG'AMBARLIKKA DAVO QILGAN MUQANNA QISMATI

Bobomurod Faxriddin o'g'li Abdishukurov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

abdshukurovbobomurod2002@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ilk o'rta asrlarda xalq qahramoni deya etirof etilgan Muqannani nima uchun ayrim manbalarda payg'ambarlikka davo qilganligi haqida fikrni nechog'lik haqiqatga to'g'ri kelishi haqida batafsil to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Muqanna, Mazdakiylar, feodal, qozi, imon, mazhab, porso, podshoh, niqob, "Qadimgi xalqdan qolgan yodgorliklar", Avesto.

KIRISH

Tarixdan yuz berayotgan vodea-hodisalar shu haqida xabar beradiki har bir davr o'z qahramonlarini maydonga olib chiqadi. Turon zaminda yuz bergen chet el bosqinchiliklariga qarshi kurashgan mahalliy xalq yo'lboshchilar nomi tarixda qahramonlar sifatida gavdalananadi. Muqannaning asli ismi Hoshim ibn Hakim bo'lib, VIII asrda yashab o'tgan tarixiy shaxsdir. U haqda Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida, Narshaxiy «Buxoro tarixi» asarida, Sergey Pavlovich Tolstov "Qadimgi Xorazm" asrida mufassal ma'lumotlar berib o'tishgan.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Muqanna shaxsiga to'xtalishdan oldin mazdak ta'limoti haqida malumot berib o'tmoqchiman, chunki Muqanna mazdak ta'limotini ilgari surgan shaxs sifatida gavdalananadi. Nizomulmulkning "Siyosatnomा" asarida mazdak ta'limoti haqida ancha ma'lumotlar berib o'tilgan. Asarda keltirilishicha Mazdak otashparastlikni yo'q qilib, yangi ta'limotni joriy etmoqchi bo'ladi. Bunga asos Mazdak yuduzlarni yaxshi bilardi. Mazdak payg'ambarlik davosini qilishdan oldin qo'l ostidagi rohiblarni chaqirtirib uzoq joydan chuqur qazdirib, chuqurni otashxonasi o'rtasidan chiqartiradi. O'sha paytda Mazdak o'zini Zardusht dinini tozalashga yuborilgan shaxs sifatida biladi. Uning fikricha xalq Avesto (Zand) ning asl ma'nolarini esdan chiqargan va Alloh aytganlarini Zardusht talqiniga mos ravishda amalga oshiradi degan fikrlarni aytadi va payg'ambarlik davosini qiladi. Bunda xabar topgan Qubod majlis qiladi, Mazdakni yoniga chaqiradi va deydi sen payg'ambarlik davo qilibsan deydi. Mazdak aytadi mehrob va

qiblagalaytirgan olovni so'zga kiritib Allohdan olovga farmon berib, mening payg'ambarligimni haqida guvoh berishini so'rayman, sen vas sen bilan bo'lganlar buni eshitasizlar. Qubod aytadi ey Eron zamining ulug'lari va mo'tabar mubadlari sizlar nima deysilar.Ular aytadi Mazdak kitobimizni va dinimizni tan olyapti, dinimizga ham qarshi emas,hayron bo'layotgan narsamiz shundaki biz ibodat qilayotgan olovni so'zga kiritish odam qudratidan yiroqdir, Malik sen buni bizda yaxshi bilasan deydi. [1, 174-176]. Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida keltirishicha Mazdak ibn Hamdodon Qabod ibn Feruz davrida mubadlar mubadi, ya'ni qozilar qozisi lavozimida ishlagan. U sanaviylikka davo qilgan va mazhabning ko'p joyida Zardushtni muxolif deb bilgan.Mazdak odamlar barcha molk-mulk va xotinlar masalasida bir-birlariga sheriklar dedi.Son sanoqsiz xalq unga ergashdi.Qabod ham unga imon keltirdi. Ba'zi eronliklar gumon qilishicha Qabod Mazdakka faqat unga ergashganlar ko'paygan vaqtida davlati uchun xavfli bo'lishidan qo'rqib unga majburiy ergashgan deb aytildi. Mazdak hiylagarlardan bo'lgan U Qabodni o'z amakisi o'g'lining xotinini yaxshi ko'rib qolganini bilgach, ustalik qilib mazhabni o'ylab chiqargan va ommaga e'lon qilgan. Qabod mazhabni darrov qabul qilgan. Mazdak Qabodga chorva mollarini to ajali yetguncha so'yishni man qilgan va unga o'g'li Anushervon onasi bilan yotib, undan lazzat olmaguncha sening istaging to'laqonli tuyassar bo'lmaydi degan. Shunda Qabod uning so'zini qabul qilib, xotinini uning ixtiyoriga bergen.Shu vaqt Anushervon Mazdaknning oldiga kelib, onasi haqida unga so'z yuritgan, yalinib-yolvorgan va uning oyoqlarini o'pgan. Nihoyat Mazdak Anushervonni onasini tinch qo'yib, uni minnatdor qilgan. Anushervon podshoh bo'lgach, dastlabki qilgan ishi Mazdak va uning sahabalarini qo'lga tushganini va ularning yuzlarini quyiga, orqa tomonlarini yuqoriga qilib, chuqurlarga ko'mdirib o'ldirishdan iborat bo'lgan. Anushervon Mazdakka tobe bo'lgan hamma ulug' va atoqli kishilarni uning e'tiqodidan qaytishga majbur qilgan qaytmagan kishini o'ldirib yuborgan. Anushervon doimo: „Mazdak kuniga bog'liq biron narsaga e'tibor bersam, albatta, burnimda uning oyoqlarini o'pgan vaqtimdagи paytavasining hidini sezaman”, der edi Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Muqannanining tug'ilgan joyi Marvdagi Kovakimardon nomli qishloq deb beriladi. U bir ko'zli bo'lganidan yuziga ko'k shoyidan niqob tutgan edi deyiladi. Muqanna o'zinining xudo ekanligini davo qildi va jasadga kirganini, chunki jasadga kirmsadan oldin birov unga qaray olmaganini aytadi. Muqanna o'rab olingach, jasadi yo'q bo'lib ketishi uning tobelari yuqoridagi aytgan gaplariga ishonishlari uchun o'zini olovga tashlagan edi. Uning kuyamanku, yo'q bo'lib ketaman degan g'oyasi amalga oshmadidi, balki uning jasadi tandirdan topildi. Muqannaning kallasi olinib, o'sha kunlarda Halabda bo'lgan amiral mo'minin al-Mahdiya yuborildi [2, 244-248].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Narshaxiyning „Buxoro tarixi” asarida keltirishicha Muqanna juda xunuk, boshi kal va bir ko'zi bo'lganidan doim yuziga niqob taqib yurgan. Muqanna abbosiylar davatchisi hisoblangan Abu Muslimning lashkarboshilaridan bir bo'lgan keyinchalik Abduljabbor Azdiyga vazir bo'ldi va payg'ambarlik da'vosini qildi va bir qancha vaqt shu da'voda yurdi. Abu Ja'far Davonaqiy odam yuborib Marvdan Buxoroga olib keldi va bir necha yil davomida zindonda saqladi.Muqanna zindondan qutulib chiqadi va Marvg'a qaytadi. Marvg'a qaytgach odamlarni yig'ib o'zini men sizning va butun olamning xudosiman deydi. Muqanna yana shuni aytdiki: Men o'zimni xalqqa Odam Ato suratida, keyin Nuh suratida, keyin Ibrohim suratida, keyin Muso suratida, so'ng Iso suratinda, keyin Muhammad Mustafо s.a.v suratida keyin, Abu Muslim suratida ko'rsatgan zotman, endi esa o'zingiz ko'rib turgan suratdamан dedi. Shunda odamlar boshqalar, Payg'ambarlik da'vosini qilgan edi, sen xudolik da'vosini qilyapsan deyishdi. Shunda Muqanna „Ular nafsoniy edilar, men ruhoniyman va ularning ichida edim, menda

shunday qudrat borki, o'zimni qanday suratda ko'rishni xohlasam shunday suratda ko'rsataman. Muqanna har bir viloyatga noma yozib, o'zining doiylari (tashviqotchi) orqali yuboradi. Unda shunday deyiladi: Rahmli va mehribon Tangri nomi bilan, sayyidlar sayyidi Hoshim ibn Hakimdan falonchi o'g'li falonchiga, hamd xudoga bo'lsin, undan boshqa xudo yo'q. U Odam Atoning, Nuh, Ibrohim, Muso, Iso, Muhammad, Abu Muslimlarning ha xudosidir. Kimki menga imon keltirsa, jannat o'shaniki, kimki menga imon keltirmasa do'zax uniki. Marvda o'sha vaqtda arablardan Abdulloh ibn Amin nomli kishi bo'lgan, u Muqannaga imon keltiradi va qizini unga xotinlikka bergen. Ana shu Abdulloh Jayhun (Amudaryo) dan o'tib, xalqni Muqanna diniga chaqirib, ko'p kishini yo'ldan ozdirdi. Bundaylar Kesh shaharlari va qishloqlarida ko'proq edi. Dastlab Muqanna diniga kirgan va uning dinini yuzaga chiqargan Keshning Subax nomli qishlog'i bo'lib, qishloq aholisining ulug' kishisi Umar Subaxiy edi. Qishloqning amiri arablardan bo'lib, porso kishi edi, uni o'ldiradilar. Sog'dning ko'pchilik qishloqlari Muqanna diniga kiradi, Buxoro qishloqlaridan ko'p kishi kofir bo'lib, kofirlikni oshkor qildilar. Keyin bu fitna kuchayib ketib, musulmonlar uchun qattiq balo bo'ldi, muqannachilar karvonlarni urib, qishloqlarni talar va ko'p vayrongarchiliklarni keltirib chiqarardi. [4, 108-111]. Ilk o'rta asrlar davri Turon zaminida islom dini keng quloch yoyilayotgan davr hisoblanadi. Muqanna kabi dinni niqob qilib olib xalqimiz ongiga ularni diniga qarshi chiqishga undayotgan shaxsni darsliklarda, bundan tashqari yoshlari ongiga qahramon deya singdirish haqiqatdan yiroqdir.

XULOSA

Xulosa qilish mumkinki bizning tariximiz ziddiyatlar girdobida shakllangan. Har bir mustamlakaga qarshi xalq noroziliklari, qo'zg'alolnari va namoyishlari bir necha marta bo'lib o'tgan. Muqanna qo'zg'oloniga keladigan bo'lsak, Muqanna shaxsi xalq qahramoni sifatida gavdalanadi yoki o'zini xalq qahramoni sifatida ko'rsatib, o'zining ta'limotini targ'ib qilgan ruhoniy sifatida namoyon bo'ladi. Qo'zg'olon shuni ko'rsatib qo'ydiki xalqimiz o'ta darajada ishonuvchan, ya'ni qaysidir inson o'zining yetakchilik qobiliyatini ishga solib, o'z qarashlarini yoki aniqroq aytsak yaratgan ta'limotini xalqni ongiga singdirsa xalqimiz unga so'zsiz ergashadi. Faqat bu Muqanna qo'zg'oloni emas boshqa qo'zg'olonlar ham bu narsani isbotlab qo'ygan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. НИЗОМУЛМУЛК, СИЁСАТНОМА (СИЯР УЛ-МУЛУК) "Янги аср авлоди" Т.: 2008.
2. Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» Т.: O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1968.
3. С.П.ТОЛСТОВ «ДРЕВНИЙ ХОРЕЗМ» ИЗЛАНИЕ МГУ МОСКВА-1968.
4. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий «БУХОРО ТАРИХИ» -Тошкент: "Anorbooks", 2022.